

Origami kit

Origami – qog'ozni buklab shakllar yasash san'ati.

Origamining vatani Yaponiya hisoblanadi.



Origami – bu konstruktor bo'lib, unda detalni, ya'ni kvadrat qog'oz varag'ini buklab, yuzlab, minglab turli xil shakllar yasash mumkin.

Oddiy qog'ozdan yaponlar mo'jizalar paydo qilishadi. Ular yasagan shakllar binolar va turar joylarni bezab turadi. Yaponiyada qog'ozdan yasalgan kusudama sharlari, turnalar va boshqalar baxt ramzi hisoblanadi.

Kit – kitsimonlar tarkumiga mansub dengiz sutemizuvchisi. Kit dunyodagi eng yirik hayvondir. Ko'k kit tanasining uzunligi 33 metr, og'irligi esa 150 tonnagacha bo'ladi. Unda ta'm va hid bilish hislari umuman yo'q. Ko'rish qobiliyati ham juda past. Bu hayvonning quloqlari yo'q, lekin pastki jag'ida joylashgan maxsus a'zolar tovushni eshitishiga yordam beradi.



Kitsimonlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- mo'ylovdor kitlar,
- tishli kitlar,
- qadimgi kitlar.

2

**QR-kodni
skanerlang**